DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Xasanov Ruslan Raxmatovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

Received: 16.08.2025
Revised: 17.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy intizom, budjet nazorati, moliyaviy resurslar, davlat budjeti, moliyaviy samaradorlik.

Abstract
Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning ahamiyati va uning samaradorligi tahlil qilinadi. Davlat moliyaviy nazorati davlat budjeti va moliyaviy resurslarning to‘g‘ri va samarali boshqarilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada moliyaviy nazorat shakllari, ularning davlat moliyaviy boshqaruvidagi o‘rni va moliyaviy intizomni ta’minlashdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar beriladi.

Davlat moliyaviy nazorat nazariyasining o‘ta muhim masalasi – bu nazorat parametrlari, ya’ni davlat moliyaviy nazorat ob’ektlari holati va faoliyat ko‘rsatishining normalari. Bizning fikrimizcha, quyidagilarni davlat moliyaviy nazorat uchun asosiy parametrlar deb hisoblash lozim:

- qonuniylik;
- maqsadga muvofiqlik;
- samaradorlik.

Ushbu parametrlar mavhum bo‘lib (ya’ni eng umumiy tavsifni aks ettiradi), muayyan nazorat tadbirlarini amalga oshirishda, albatta, ularga aniqlik kiritish lozim (masalan, soliqlar va yig‘imlarni o‘tkazishning to‘liqligini nazorat qilishda, birinchi navbatda, haqiqiy o‘tkazilgan summalarning qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan stavkalarga muvofiq hisoblab chiqilgan summalarga mos kelishi darajasi aniqlanadi).

Bunda yuqorida ko‘rsatilgan parametrlar ko‘p sonli, lekin unchalik muhim bo‘lmagan talablarning o‘ziga xos agregatlari sifatida ishtirok etadi (masalan, maqbullik, asoslilik, to‘liqlik, aniqlik, o‘z vaqtidalik kabi parametrlar shular jumlasidandir). Davlat moliyaviy mablag‘lari o‘tkazilishining qonuniyligini tekshirishda barcha o‘rnatilgan (pul o‘tkazmalarini amalga oshirishning to‘liqligi, aniqligi, o‘z vaqtidaligi) talablarga rioya qilinichi darajasi aniqlanadi.

Pirovardida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish byudjet jarayonlarining barqarorligini va davlat moliyaviy tizimining barqarorligini saqlab turish, normalarni ishlab chiquvshi organlar tomonidan belgilangan qoidalar va tartiblarga rioya qilinmagan holatlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga zarur tuzatishlarni kiritish imkonini beradi, maqsadga muvofiqlik esa – nafaqat davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishini va uchbu mablag‘lar hisobidan xarid qilingan mol-mulkdan foydalanishni, balki faoliyatning belgilangan maqsadlar, dasturlar va ustuvor yo‘nalishlarga mos kelishini ham qamrab oluvchi kategoriya. Shuningdek, samaradorlik nuqtai nazaridan nafaqat investitsiyaviy dasturlarning foyda va xarajatlarining nisbati nuqtai nazaridan bajarilishi baholanadi, balki boshqarish (masalan, davlat mulkini) haqiqiy natijalarining rejadagi natijalarga mos kelishi darajasi, davlat korxonasida kamomad va xo‘jasizlikning oldini olish tizimlarining (ichki nazorat tizimlari) amaliyligi aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda uning asosiy elementlari muhim rol o‘ynaydi.

Faoliyat sifatida davlat moliyaviy nazorati – bu bir tartib tizimidir. Dialektikadan ma’lumki, har qanday tizimda elementlarning bog‘liqligi, ularning tarkiblangan yig‘indisidagi kabi qism va butunning o‘zaro hamkorligi qonunlariga bo‘ysunadi. Elementlarni yaxlit tizimga birlashtirishda uning xususiyatlari uning tarkibiy qismlarining algebraik yig‘indisidan farq qiladi. Subadditivlik prinsipiga (butun hamisha uning qismlarining yig‘indisidan kam emas) asoslangan holda, davlat moliyaviy nazorat tizimining mohiyatini uning

alohida qismlari va ular xususiyatlarining talqinidan kelib chiqqan holda to‘liq bilishning iloji yo‘q. Bunday murakkab tizimning xususiyatlari noadditiv, ya’ni alohida qismlar xususiyatlaridan iborat bo‘lmaydi. Tizimdagi tarkibiy o‘zgarishlar butun sifatida tizim rivojlanishining umumiy qonunlariga bo‘ysunuvchi elementlar xususiyatlarining o‘zgarishini keltirib chiqaradi. Butunning xususiyatlarini izohlach uchun tizimli yondashuv, xususan:

1. davlat moliyaviy nazorat tizimini taqdim etish vositalarini ishlab chiqish (ya’ni davlat moliyaviy nazoratning tizimni hosil qiluvchi xususiyatlarini aniqlash);

2. turli nazorat organlari yoki ularning guruhlari (javobgarlik markazlari) - davlat moliyaviy nazorat tizimining tashkiliy asosi o‘rtasidagi integrativ bog‘liqliklarni talqin etish;

3. davlat moliyaviy nazorat tizimining asosiy elementlarini aniqlash;

4. davlat moliyaviy nazorat tizimi rivojlantirish yo‘llarini belgilash zarur.

Ushbu talablarga muvofiq tadqiqot o‘tkazishdan oldin davlat moliyaviy nazorat javobgarlik markazining mazmunini ochib beramiz.

Davlat moliyaviy nazorat javobgarlik markazi – bu nazorat funksiyalarini bajaruvchi va ushbu funksiyalar chegarasida javobgarlikka ega bo‘lgan, davlat moliyaviy nazorat tashkiliy tuzilmasining nazorat qilish dasturlari bilan o‘zaro bog‘langan birligi yoki birliklari yig‘indisi. davlat moliyaviy nazorat tashkiliy tuzilmasining birligi yoki bo‘g‘ini deganda muayyan nazorat funksiyalarini bajaruvchi organni, uning tarkibiy bo‘linmasini yoki alohida mansabdor shaxslarni tushunish darkor. Davlat moliyaviy nazorat dasturi – bu muayyan nazorat tadbirlarini amalga oshirishning hujjat bilan rasmiylashtirilgan rejasi bo‘lib, unda ushbu tadbirlarning maqsadlari va vazifalari, nazorat qilish ob’ektlari, nazoratni amalga oshirish ketma-ketligi va muddatlari ko‘rsatilgan hamda ijrochilar (shu jumladan qo‘shma tekshiruvlarni), ular harakatlari va o‘zaro hamkorligining tartibi nazarda tutiladi. Albatta, davlat moliyaviy nazorat

faoliyat sifatida ushbu javobgarlik markazlarining muayyan tarzda ishlashida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratning ko‘p darajali tashkiliy tuzilmasini yaratish javobgarlik markazlarining ikkita guruhi ajratilishini nazarda tutadi:

1) muayyan nazorat ob’ektlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi alohida javobgarlik markazlari (masalan, davlat moliyaviy nazorat alohida organlari, ularningbo‘linmalari va h.k.);

2) alohida bo‘g‘inlar va butun tizimning yaxlitligini ta’minlovchi muvofiqlashtiruvchi javobgarlik markazlari (masalan, muvofiqlashtiruvchi kengashlar va h.k.).

Javobgarlik markazlariga zarur funksiyalarning yuklatilishi tizimni jonlantiradi. Butun tizimning muvofiqlashtirilishini talab qilmaydigan alohida nazorat jarayonlari kechadigan javobgarlik markazlarida vazifa ancha osonlashadi. Butun tizimning (uning bo‘g‘inlari birliklarining) uyg‘un tarzda ishlashini qo‘llab-quvvatlash talab etiladigan muvofiqlashtiruvchi javobgarlik markazlarida ancha murakkab yondashuv amalga oshiriladi. Ta’kidlash lozimki, javobgarlik markazlari tushunchasining o‘zi ham, ularni alohida va muvofiqlashtiruvchi javobgarlik markazlariga bo‘lish ham olimlar tomonidan moliyaviy- xo‘jalik faoliyati masalalarini va alohida iqtisodiy birliklarni – tijorat tashkilotlarini tadqiq etishda qo‘llaniladi. Lekin, bizning nazarimizda, ushbu tushunchalarni, agar davlatga nisbatan yagona murakkab ijtimoiy yo‘naltirilgan tashkilot sifatida yondashilsa, davlat tuzilmalarini tadqiq etishda ham qo‘llash to‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning mantig‘i davlat moliyaviy nazoratning tizimni hosil qiluvchi xususiyatlarini batafsil tahlil qilishni nazarda tutadi. Kamida uchta tizimni hosil qiluvchi xususiyat mavjud:

1) nazorat qilish sub’ekti va ob’ekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning

mohiyati;

2) darajasi va ahamiyatiga ko‘ra turlicha bo‘lgan javobgarlik markazlarining tashkiliy jihatdan tartibga solinganligi va o‘zaro ta’siri;

3) tashkiliy tuzilma birliklarining hamda ularni funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri.

Har qanday boshqaruv tizimining ishlashi sub’ekt bilan ob’ekt o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari bog‘liqlikka asoslangan. Buni nazoratga nisbatan talqin etamiz. To‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik nazorat qilish boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan nazorat ta’siri natijalarini ta’minlaydi. Teskari bog‘liqlik nazoratni o‘tkazishning sifati haqida xulosa beradi, uning ob’ektga ta’sirining darajasi haqida ogohlantiradi. Shunday qilib, nazorat moliyaviy oqimlarni boshqarish doirasidagi teskari bog‘liqlikni aks ettiradi.

Teskari bog‘liqlik, birinchidan, nazorat ob’ektini maqbullashtirish yuzasidan qarorlar ishlab chiqish, ikkinchidan, nazorat sub’ektlarining faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan tashkiliy yo‘naltirilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, nazorat sub’ekti bilan ob’ekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning mohiyati tizim sifatida boshqaruv jarayoni nazorat elementining shakllanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

Ikkinchi tomondan, davlat moliyaviy nazoratning tashkiliy tuzilmasini hosil qiluvchi birliklar yig‘indisi yaxlitlikning tizimli xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlar tuzilmani rang-baranglashtiradi va yaxlit nazorat ob’ekti alohida qismlarining o‘zaro bog‘liqligini, ya’ni davlatdagi moliyaviy munosabatlarni, ularning predmeti va ichtirokchilarini belgilab beradi. Va, nihoyat, javobgarlik markazlarining xilma-xilligi va tashkiliy jihatdan tartibga solinganligi prinsipial jihatdan turlicha bo‘lgan ob’ektlarga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Javobgarlik markazlarining tarkibi va tuzilmasi, birinchi navbatda, mamlakatning davlat tuzumi, davlatning funksiyalari va davlat

tomonidan o‘z rivojlanishining turli bosqishlarida hal etiladigan vazifalar bilan belgilanishi kerak.

Endi davlat moliyaviy nazorat tizimining asoslari hisoblangan turli javobgarlik markazlari o‘rtasidagi integrativ bog‘liqliklar haqida to‘xtalamiz. Davlat moliyaviy nazorat jarayonining o‘zgaruvchanligi, barqarorligi, uzluksizligi tashkiliy tuzilmaning yagonaligi va uning markazlashganligining optimal darajasi bilan belgilanadi. Davlat moliyaviy nazorat jarayoni sikllarining asosiy dasturlar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlari esa javobgarlik markazlari va ular muayyan funksiyalarining ajralishini belgilab beradi. Masalan, jamiyat hayotini demokratlashtirish, yangi iqtisodiy munosabatlar, davlat moliyaviy nazorat jarayonining sifatiy darajasini oshirishga nisbatan qo‘yiladigan zamonaviy talablar hamda davlat hokimiyatining uchta mustaqil bo‘g‘inga bo‘linishi prinsipi nazoratning yangi turi – parlament nazoratining joriy etilishiga turtki berdi, prezident hokimiyati institutining shakllanishi esa nazoratning prezident nazorati turi paydo bo‘lishini belgilab berdi. Yangi nazorat turlarining paydo bo‘lishi davlat moliyaviy nazoratning tashkiliy tuzilmasida yangi bo‘g‘inlar, yangi javobgarlik markazlari, o‘z navbatida Xisob palatasini paydo bo‘lishiga olib keldi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasi davlat moliyaviy nazorat tizimining elementlarini aniqlash imkonini beradi.

Bizningcha, davlat moliyaviy nazorat tizimini quyidagi elementlar tashkil qiladi:

- nazariy baza (tushunchalar, maqsadlar, vazifalar, prinsiplar, majburiyatlar, davlat moliyaviy nazorat turlari va b.);
- normativ baza, uslubiy ta’minot;
- tashkiliy tuzilmalar (shu jumladan ularning bo‘g‘inlari – javobgarlik markazlari, ularning maqomi va o‘zaro bog‘lanish tartibi);
- ilmiy-tadqiqot va o‘quv bazasi, kadrlar ta’minoti;

- moddiy-texnik va moliyaviy ta’minot (shu jumladan moliyaviy resurslar, ish sharoitlariga mos keluvchi texnika, binolar va h.k.);

- axborot-kommunikativ infratuzilma (axborot ta’minoti, kommunikatsiyalar tizimi).

Ta’kidlash lozimki, axborot ta’minoti tizimi butun nazorat tizimiga nisbatan ham, alohida organning faoliyat ko‘rsatishi doirasida ham ko‘rib chiqilishi kerak. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorat organlarining faoliyatini axborot bilan ta’minlash tizimini loyihalashtirish yagona konsepsiyasi mavjud emas. Bizningcha nazoratni ta’minlash axborot tizimining asosiy vazifalari jumlasiga quyidagilarni kiritish lozim: nazorattadbirlarining rejalarini shakllantirish; nazorat tadbirlarini o‘tkazish; nazorat tadbirlarining yakunlari bo‘yicha hisobotlar tuzish, ularni tizimga solish va saqlash; nazorat tadbirlari metodikalarining axborot bazasini shakllantirish; amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar axborot bazasini shakllantirish; nazorat tadbirlarini o‘tkazish uchun jalb qilinadigan mutaxassislar kartotekasini shakllantirish; nazorat-xisob palatasiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish; nazorat-xisob palatasi rahbariyatiga axborot xizmat ko‘rsatish.

Shu munosabat bilan axborotni to‘plash, davlat moliyaviy nazorat tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasida axborot almashish telekommunikatsion tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlash zarur. Bu erda axborotni magnitli manbalarda va aloqa kanallari bo‘yicha yuborish, hamda axborotni himoyalashning zamonaviy tizimlarini joriy etish masalalari ham paydo bo‘ladi.